

Buxoro viloyati statistika boshqarmasi

2020- yil yanvar-dekabr

(dastlabki ma'lumot)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2020- yil yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish hagi 2439,0 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyati-ga ega to'lovlар, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlар kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlар ham mavjud) tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nis-batan **15,4%** ga o'sdi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xodimlar soni, mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadi va o'rtacha oylik ish haqi.


	Xodimlar soni, <i>kishi</i>	Mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromad <i>mlrd. so'm</i>	O'rtacha oy- lik ish haqi, <i>ming so'm</i>
Viloyat bo'yicha - jami	151376	4119,8	2439,0
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	17587	566,3	2894,9
Qurilish	6569	205,6	2711,4
Savdo	2634	60,0	2016,6
Tashish va saqlash	13567	507,2	3572,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xiz-matlar	453	9,7	1785,3
Axborot va aloqa	1226	37,9	2596,5
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	3091	204,0	5423,3
Ta'lim	56456	1215,7	1955,0
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	26256	678,0	2192,0
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	2832	59,5	1790,3
Boshqa faoliyat turlari	20705	575,9	2316,8



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik ish haqi ulushi jamiga nisbatan Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (**2,1 m.k**), tashish va saqlashda (**146,5 %**), sanoatda (**118,7 %**), qurilishda (**111,2 %**), axborotlashtirish va aloqada (**106,5 %**), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (**89,9 %**), savdoda (**82,7 %**), ta'lilda (**80,2 %**), san'at ko'ngil ochish va dam olishda (**73,4 %**) va boshqa yo'nalishlarda (**95,0 %**) hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatdagি o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



2020- yil yanvar-dekabr


(dastlabki ma'lumot)

Buxoro viloyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini Buxoro viloyati hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida **3675,6** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 150,7 %), Kogon shahrida **3209,6** ming so'mni (131,6 %), Buxoro shahrida **2578,6** ming so'mni (105,7 %), Kogon tumanida **2506,4** ming so'mni (102,8 %) tashkil etgan bo'lsa, aksincha Olot tumanida **1941,7** ming so'mni (79,6 %), Peshku tumanida **1836,7** ming so'mni (75,3 %) va Vobkent tumanida **1736,6** ming so'mni (71,2 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdor ga ega bo'lmoqda.


Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



**Buxoro viloyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)**

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	O'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	2113,4	2439,0	115,4
Buxoro sh.	2274,9	2578,6	113,3
Kogon sh.	2968,8	3209,6	108,1
<i>tumanlar:</i>			
Olot	1832,3	1941,7	106,0
Buxoro	1838,2	2105,5	114,5
Vobkent	1651,0	1736,6	105,2
G'ijduvon	1785,3	1959,9	109,8
Kogon	1845,9	2506,4	135,8
Qorako'l	1717,9	2232,4	129,9
Qorovulbozor	2934,8	3675,6	125,2
Peshku	1655,5	1836,7	110,9
Romitan	1797,7	2372,3	132,0
Jondor	1696,1	1947,1	114,8
Shofirkon	1744,7	1984,3	113,7



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	O'sish sur'ati, %
Viloyat bo'yicha - jami	2113,4	2439,0	115,4
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	2953,0	2894,9	98,0
Qurilish	1801,6	2711,4	150,5
Savdo	1948,9	2016,6	103,5
Tashish va saqlash	2986,9	3572,9	119,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1456,5	1785,3	122,6
Axborot va aloqa	2216,9	2596,5	117,1
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	4474,2	5423,3	121,2
Ta'lim	1811,0	1955,0	108,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1714,4	2192,0	127,9
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1632,9	1790,3	109,6
Boshqa faoliyat turlari	1886,6	2316,8	122,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xodimlar soni, mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadi va o'rtacha oylik ish haqi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjalariiga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "2020- yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, 2020- yilning 1-fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori **679 330** so'mni tashkil etadi.

